

O‘ZBEK SHOIRI JAMOL KAMOL IJODIY-MA’NAVIY MEROSINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Komil Abdikarimovich QARSHIYEV

dotsent

filologiya fanlari bo‘yicha (PhD) falsafa doktori

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

Samarqand, O‘zbekiston

komilqarshiyev07@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada shoir va tarjimon Jamol Kamolning hayoti va ijodi, adabiy-nazmiy tarjimalari, ilmiy risolalari, publitsistik ocherklari xususida fikr yuritilgan bo‘lib, shoir faoliyatidagi milliy va umuminsoniy qadriyatlarga doir adabiy-estetik qarashlar haqida muxtasar xulosalar chiqarilgan.

Tayanch so‘zlar: Ijtimoiy davr, adabiyot, ma’naviyat, ijod, tarjimonlik, adabiyot nazariyasi, janr, vazn, tuyg‘u, tafakkur.

ОСОБЕННОСТИ ДУХОВНО-ТВОРЧЕСКОГО НАСЛЕДИЯ УЗБЕКСКОГО ПОЭТА ДЖАМОЛА КАМОЛА

Комил Абдикаримович КАРШИЕВ

Доцент

доктор философии по (PhD) филологическим наукам

Самаркандский государственный университет

имени Шарофа Рашидова

Самарканд, Узбекистан

komilqarshiyev07@gmail.com

Аннотация

В статье рассматриваются жизнь и творчество поэта и переводчика Джамола Камол, его литературно-поэтические переводы, научные труды и публицистические очерки. В работе представлены краткие выводы об эстетико-литературных взглядах поэта, отражающих национальные и общечеловеческие ценности в его творческой деятельности.

Ключевые слова: Социальная эпоха, литература, духовность, творчество, переводческая деятельность, теория литературы, жанр, размер, чувство, мышление.

O‘zbek adabiyotini, badiiy tarjima mohoratini, adabiyotshunoslik ilmini, milliy publitsistikani va dramaturgiyani bir pog‘ona yuksalishiga xizmat qilgan Jamol Kamol 1938-yil 9-noyabrda Buxoro viloyati Shofirkon tumanining Chitkaron qishlog‘ida ziyoli oilada dunyoga kelgan. Hayot tashvishlari u yoqda tursin, mo‘jizakor tabiatning rang- u jilvalarini hali to‘liq anglamasdanoq yosh

Jamol ijtimoiy tuzumning og‘ir zarbasiga duchor bo‘ladi. “Bo‘lajak shoir uch oylik chaqaloq ekanligidayoq otasini qamashadi. *“Fayzulla Xo‘jayev va Akmal Ikromov xalq dushmani emas, do‘stlari edi”*, – degan gap – mana shu bir jumla uchun uni – *Kamol Husanxo‘ja*ni otuvga hukm qilishgan” [2; 5]. Keyinchalik bu musibat va ayriliq jafosini shoir Jamol Kamol shunday tasvirlaydi:

*O‘ttiz besh yoshida otam otildi,
Uch oylik chaqaloq edim o‘shanda.
O‘sha tun oshimga zahar qotildi,
Taqdir zarbasini yedim o‘shanda [2;5].*

Bo‘lajak shoirning otasi – *Kamol Husanxo‘ja* hajrida shoirning onasi – *Hojalbegim Mulloxo‘ja* qizi ham o‘ttiz besh yoshda vafot etadi.

*Otam diydorini ko‘rolmadim men,
Onasiz o‘ssam-da bo‘lmadim yetim ...*

Bu tasallining ortida o‘rkach-o‘rkach qayg‘u va alam bekinib yotibdi, – degan edi adabiyotshunos Ibrohim Haqqul [2;6].

Amerikalik yozuvchi Ernest Xeminguey: *“Ijodkor bo‘lish uchun kuch, bilim, iste‘dod va, albatta, baxtsiz bolalikni boshdan kechirish kerak”*, – degan qarashni ilgari suragan. Taqdiri azal yosh Jamol qismatida ham ota-onadan erta judo bo‘lish uqubatini yozgandi. Shu bois yosh shoir Vatan tushunchasini, inson va hayot falsafasini, yashash mohiyatini tengdoshlariga nisbatan ilgariroq ilg‘ay boshlagan.

So‘zni ilhom, tuyg‘uni zavq, fikrni dard boshqaradi, – deganlaridek, mana shu intim dard Jamol Kamol ijodi muqaddimasidagi ilhom-u zavq uchun asos bo‘ldi va bora-bora ulkanlashib, shoir shaxsiyatidan o‘sib chiqib, xalq, bashariyat, Vatan qayg‘usi darajasiga ko‘tarildi.

U 1959-yilda Buxoro pedagogika institutining filologiya fakultetini tugatadi. Shoir to‘rtinchi kursda o‘qiyotganida kichik hajmli ilk dostoni – *“Jamila”* bilan Buxoroga tashrif buyurgan shoira Zulfiya tahsiniga sazovor bo‘ladi. Shundan so‘ng *“Sharq yulduzi”* jurnalida Jamol Kamolning ilk yozishmalari chiqa

boshlaydi. Bu esa adabiy jamoatchilikning, xususan, O‘zbekiston xalq shoiri Shukrulloning e‘tiborini tortib, yosh shoirga maktub yozishga undaydi.

Jamol Kamolning birinchi she‘riy to‘plami 1962-yilda o‘tkazilgan Respublika yosh ijodkorlar seminarida nashrga tavsiya etiladi, ammo bu to‘plam olti yildan so‘ng **“Olam kirar yuragimga”** nomi bilan nashr etiladi. To‘plamning nomlanishiga shoirning **“Olam kirar yuragimga”** nomli ilk she‘ri asos bo‘lib xizmat qilgan. She‘rdagi tuyg‘ulariga suqlangan lirik qahramonning orzulari tasvirlangan misralar o‘zbek adabiyotiga voqeband kechinmalarning lirik musavviri bo‘lgan buyuk qalb egasi kirib kelishidan dalolat edi:

Olam kirar yuragimga ming jilva bilan,

Daryo – qo‘shiq, oqshom – shafaq, Oy – shu‘la bilan [7;24].

Adabiyotshunos Ibrohim Haqqul Jamol Kamol haqidagi *“She‘riyat – dard va umid demak”* nomli maqolasida: *“U – shoirlarning olimi, olimlarning shoiri. Uning ilmiy tadqiqot va maqolalari ijodiyotining muhim qismini tashkil etadi”,* – degan edi [2;19].

Jamol Kamolning she‘riyat dunyosiga va adabiyotshunoslik olamiga kirib kelishi deyarli bir davrda kechgan. U 1969 – 1971-yillarda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutining aspiranturasida tahsil olib, 1971-yilda *“Lirik she‘riyatda kompozitsiya”* mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Jamol Kamol 1970 – 1972-yillarda O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi Buxoro viloyati bo‘limi mas‘ul kotibi lavozimida faoliyat olib borgan.

Adabiyotshunos Izzat Sultonning taklifiga binoan 1972-yildan e‘tiboran O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Til va adabiyot institutida ishga qabul qilinadi. Buni shoir o‘z yodnomalarida shunday xotirlaydi: *“1972-yilning sentabrida Izzat aka, Shuxrat aka, Umarali Normatov Buxoroga kelishdi. Kitobxonlar, talabalar bilan uchrashuvlar uyushtirdik. Jo‘nash oldidan Izzat aka meni bir chetga tortib, Toshkentga qaytish kerakligini qat‘iy maslahat berdi. “O‘sha taklifim – taklif, – dedi u, – mening bo‘limimda ishlaysiz, katta adabiy doirada kuchingizni sinab ko‘rasiz. O‘ylaymanki, natija yomon bo‘lmaydi...”*

Oilam bilan kengashib, Toshkentga jo'nashga qaror qildim. Toshkentga kelib, akademiyaga ishga o'rnashdim. Darhaqiqat, natija yomon bo'lmadi, ikki tomlik "Adabiyot nazariyasi", ikki jildlik "O'zbek adabiy tanqidi tarixi" kitoblarini yozishda qatnashdim. "Lirik she'riyat", "Tarixiy drama" degan risolalar bitdim. Ijodiy ishlarim yurishib ketdi. Ketma-ket she'riy to'plamlarim, dostonlarim nashr etildi. Bir necha tarjima kitoblarim bosildi. To 1986-yilgacha G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotiga bosh muharrir bo'lib ishga o'tgunimga qadar Izzat akaga o'rinbosar, muavin bo'lib ishladim. Ana shu o'n uch yil davomida uni yaqin-yiroqdan kuzatdim, bir shogirddek unga mehr qo'yib, atrofida aylanadigan, unga suqlanadigan bo'lib qoldim" [3;305].

Iste'dodli shoir Jamol Kamol 1986 – 1988-yillarda G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotiga bosh muharrir, 1991 – 1996-yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi bo'lib faoliyat olib boradi.

O'tgan asrning oltmishinchi yillari nihoyasidan boshlab to'qsoninchi yillarigacha shoirning "Olam kirar yuragimga"(1968), "Cho'qqilarga yog'ilgan yog'du"(1970), "Qadah"(1978), "Dostonlar"(1980), "Suvaydo"(1982), "Umidli dunyo" kabi asarlari adabiyot ixlosmandlariga tuhfa qilingan.

Jamol Kamol doston janrida barakali ijod qilgan. Uning hajman siqiq, epik tasvir lirik shaklga uyg'unlashtirilgan barmoq va aruz vaznidagi "Jamila"(1958), "Toshtug'yon"(1972), "Armon"(1973), "Hasan va Oy"(1973), "Quyosh chashmasi"(1974), "Eshikda Oy to'lqini"(1974), "Varaxsha" (1975), "Rajab Ashurov dostoni"(1983), "Shahribonu"(2000), "Shayxurrais"(2020), "Faylasuf"(2021), "Navoiy muhabbati"(2022), "Shayxzoda"(2022) kabi dostonlari mumtoz va zamonaviy dostonlar spetsifikatsiyasini o'zida mujassamlashtirgan.

Milliy istiqlolimizning muqaddimasida ro'y bergan har bir jabhadagi yangilanish siyosiy muvozanatni to'ldiradi. Tarafkashlik jarayonida shoir va yozuvchilarning ayrimlari katta ijtimoiy-siyosiy jabhadan chetga suriladi. Shular qatorida O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol ham bo'lib, u 1996-yildan 2016-yilgacha o'ziga xos "uzlatga chekinish"ga majbur bo'lib, davlat vazifalaridan xoli

tarzda sof ijod bilan mashgʻul boʻldi. Bu davrda shoir qalam tebratishdan qolmadi, aksincha, katta ijodiy yangiliklarga, ulkan adabiy-nazmiy tarjimalarga qoʻl urdi.

Oʻzbekiston xalq shoiri Jamol Kamol oila davrasida ham samimiy inson boʻlgan. Turmush oʻrtogʻi Vohida ona bilan ikki qiz va bir oʻgʻilni tarbiyalab, ularning ilm-u maʼrifatli boʻlishiga alohida ahamiyat qaratgan.

Mumtoz sheʼriy anʼanalar bilan zamonaviy sheʼriy sistemalarni uygʻunlashtirgan shoir va mahoratli tarjimon Jamol Kamol 2022-yilning 27-sentabrida vafot etgan.

Ijodkordan xalqmiz maʼnaviy xazinasiga katta hajmdagi noyob asarlar meʼros boʻlib qolgan. Xususan, shoirning istiqlolgacha va istiqlol yillaridagi *ingliz, rus va fors* tillaridan tarjima qilgan asarlarining oʻzi deyarli qirq jildni tashkil etadi.

Uilyam Shekspirning *oʻn ikkita dramasi* va *bir yuz ellik toʻrtta soneti* (asliyatdan, yaʼni *togʻridan toʻgʻri ingliz tilidan*), Imom Muhammad al-Busiriyning “*Qasidayi burda*”si, Fariduddin Attorning “*Mantiq-ut tayr*”, “*Ilohiynoma*”, “*Asrornoma*”, “*Pandnoma*”, “*Bulbulnoma*”, “*Ushturnoma*”si, Mavlono Jaloliddin Rumiyning olti jildlik “*Maʼnaviyi Masnaviy*”si, Radiy Fishning “*Jaloliddin Rumi*” tarixiy-biografik romani, Sotim Ulugʻzodaning “*Firdavsiy*” tarixiy romani, Yan Raynisning “*Oq tulpor*” sheʼriy dramatik ertagi, Bartold Brextning “*Sinchuandan chiqqan mehribon*” dramasi, Baxtiyor Vahobzodaning “*Faryod*” sheʼriy dramasi va “*Shabi hijron*” dostoni, Nikola Bualoning “*Sheʼriy sanʼat*” asari, Shayx Mahmud Shabustariyning “*Gulshani roz*” asari, Yunus Emroning “*Nechun yigʻlaysan, ey bulbul*” sheʼriy kitobi, Alisher Navoiyning “*Foniy gulshani*”, Nizomiy Ganjaviyning “*Xamsa*” asari, Umar Xayyom, Xoʻja Bahoviddin Naqshband va Xoʻja Abduxoliq Gʻijdivoniylarning *ruboiylari* Jamol Kamolning tarjimonlik xizmati evaziga oʻzbek kitobxonlariga yetib bordi. Shuningdek, shoir va mutafakkir Jamol Kamol tomonidan muqaddas kitobimiz – Qurʼoni karimning oʻzbek tilidagi adabiy-nazmiy tarjimasini ham amalga oshirilgan, ammo bu tarjima diniy ulamolarimizning tegishli fatvosi boʻlmagach, keng miqyosda nashr etilmagan.

Shoirning adabiy-nazmiy tarjimalari jahon miqyosida keng e'tirof etilgani, *Ko'nyo, Boku va Urumchi* shaharlarida nashr etilganligi umumbashariy ahamiyat kasb etadi. Xususan, *Eron Islom Respublikasining xalqaro davlat mukofoti*, *Turkiya Respublikasining Jaloliddin Rumiy*, *Ozarbayjon Respublikasining Nizomiy Ganjaviy oltin medallari*, *Boku Avro Osiyo universitetining faxriy doktorligi*, *Buyuk Britaniya Qirolligi Yelizaveta Ikkinchining tashakkurnomasi*, *Amerika Qo'shma Shtatlari Nebraska shtati va Linkoln shahri faxriy fuqaroligi* kabilar shoirning xalqaro darajada e'tibor qozonganligidan dalolat beradi.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning samarasi o'laroq shoir va mutafakkir Jamol Kamol ijodiga qiziqishning yangi to'lqini hosil bo'ldi. Natijada shoir ijodining yetakchi poetik xususiyatlari ilmiy tadqiq etilmoqda.

2018-yilda Jamol Kamolning badiiy, ilmiy, publitsistik va tarjima asarlari "*G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa uyi*" tomonidan yetti jildda nashr etilishini alohida badiiy-estetik hodisa sifatida baholash mumkin. Shoirning ijodiy kulliyoti va adabiy-nazmiy tarjimalari joy olgan tanlangan asarlari quyidagicha nomlangan:

1-jild "*Asr bilan vidolashuv*" deb nomlangan bo'lib, uning nomlanishiga XX asrda insoniyat boshdan kechirgan urushlar, kashfiyotlar, tabiatga munosabat va xalqimizning istiqbolga erishishi kabilar nazmiy ifoda etilgan "*Asr bilan vidolashuv*" lirik epopeyasi asos qilib olingan.

2-jild "*Yonayotgan dala*" deb atalib, uning nomlanishiga 70–80-yillar xalqimiz hayotida erk-u ozodlikning yo'qligi nafaqat ijtimoiy, balki ekologik muammolarni ham keltirib chiqarganligi tasvirlangan "*Yonayotgan dala*" she'ri dominantlik qilgan.

3-jild "*Abadiyat ostonasida*" deb nomlanib, unda, asosan, shoirning qirqdan ortiq ilmiy va publitsistik maqolalari, "*Chor darvesh yoki Zarafshon yodi*" nomli kinoqissasi keltirilgan.

4-jild "*She'r san'ati*" nomi bilan chop etilgan. Unda shoirning zamzama g'azallari, ilmiy risolalari, "*Qirq hadis*" she'riy turkumi, V.G.Beliniskiyning ta'biri bilan aytganda, "*Fransuz estetikasining qur'oni*" bo'lgan Nikola Bualoning

“*She’r san’ati*” asari tarjimasi berilgan va bu nodir asar to‘rtinchi jildning nomlanishiga asos bo‘lgan.

5-jild “*Anvarmirzo hikoyalari*” nomi ostida nashr qilingan. Unda Jamol Kamolning yetti jildlik saylanmasining tashabbuskori va homiysi, jahongashta tadbirkor Anvarmirzo Husainovdan eshitgan 86 ta hikoyaning manzuma tarzidagi badiiy bayoni hamda shoirning barmoq vaznidagi she’rlari, g‘azallari, muxammaslari, mustazodlari va qasidaları jamlangan.

6-jild “*Bulbulnoma*” deb atalgan. Unda qasidalar gultoiji sanalmish Imom Muhammad al-Busiriyning “*Qasidayi burda*” qasidasi, Shayx Fariduddin Attorning “*Bulbulnoma*” dostoni, Shabustariyning “*Gulshani roz*” dostoni, Abdulxoliq G‘ijdivoniy va Bahovuddin Naqshbandning ruboiylari hamda Alisher Navoiyning “*Devoni Foni*” asari tarjimai berilgan. Muallif yettinchi jildni nomlashda ishq ilohiyni tarannum etgan asarlar jamlanmasidan ruhlanib, “*Bulbuomlna*” nomini maqbul topgan.

7- jild “*Shayxurrais*” deb atalgan. Shoir saylanmasining so‘nggi jildida she’rlari, dostonlari jamlangan bo‘lib, uning nomlanishiga ijodkorning Ibn Sino haqidagi “*Shayxurrais*” dostoni asos qilib olingan.

Jamol Kamol ijodining muhim xususiyatlari haqida *Ibrohim Haqqul, No‘mon Rahimjonov, Shavkat Hasanov, Dilrobo Quvvatova va Dilshod Rajabov* kabi adabiyotshunoslar ilmiy kuzatishlar olib borgan. Shunindek, D.Nazarovanning “*Jamol Kamol she’riyati poetikasi*”(2021), kamina – K.A.Qarshiyevning “*Jamol Kamol she’riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi*”(2022), S.R.Akramovanning “*Jamol Kamol she’riyatida tojikcha-o‘zbekcha leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari*”(2023) va M.M.Hakimovning “*Jamol Kamol ijodining mavzu ko‘lami va g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari*”(2024) mavzusidagi *filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori* (PhD) dissertatsiyalarida shoir ijodining lingvopoetik xususiyatlari turli aspektlarda tahlil etilgan. Ammo, shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston xalq shoiri Jamol Kamolning lirikasi, adabiyot nazariyasiga doir ilmiy qarashlari, o‘tkir publitsistik maqolalari, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari yirik monografik muammo doirasida maxsus tadqiq

etilmagan. Shoir asarlaridagi mavzu, g'oya, obrazlar tizimi, vazn, janr va uslubiy o'ziga xoslik kabilar bilan bog'liq poetik transformatsiyani, badiiy ekzotikani, diniy-ma'rifiy ma'nodorlikni *nazariya* va *badiiyatning* o'zaro ta'sir va talqini doirasida o'rganish ehtiyoji mavjud.

Xassos shoir, mohir tarjimon, nuqtadon adabiyotshunos, o'tkir publitsist Jamol Kamol ustoz *Izzat Otaxonovich Sultonov* haqidagi maqolasining nomlashida *iyhom* san'atidan foydalanib, "*Ma'naviyatimizning Izzat Sultoni*" deya so'zning ma'noviy tarovatini namoyon qilgandi. Biz ham shoirning individual uslubiga hamohang tarzda uning ijodiy faoliyati haqidagi chizgilarimizda muxtasar qilib, "*She'riyatimiz Jamoli, tarjimonlik Kamoli*" degan xulosani ma'qul topdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Камол, Жамол. Сайланма. Етти жилдлик. I жилд. Аср билан видолашув. –Тошкент: Гафур Гулом, 2018.
2. Камол, Жамол. Сайланма. Етти жилдлик. II жилд. Ёнаётган дала. – Тошкент: Гафур Гулом, 2018.
3. Камол, Жамол. Сайланма. Етти жилдлик. III жилд. Абадият остонасида. –Тошкент: Гафур Гулом, 2018.
4. Камол, Жамол. Сайланма. Етти жилдлик. IVжилд. Шеър санъати. – Тошкент: Гафур Гулом, 2018.
5. Камол, Жамол. Сайланма. Етти жилдлик. V жилд. Анвармирзо хикоятлари. –Тошкент: Гафур Гулом, 2018.
6. Камол, Жамол. Сайланма. Етти жилдлик. VI жилд. Булбулнома. – Тошкент: Гафур Гулом, 2018.
7. Камол, Жамол. Сайланма. Етти жилдлик. VII жилд. Шайхурраис. – Тошкент: Гафур Гулом, 2022.
8. Хасанов Ш. Истеъдоднинг рангин жилolari //Шарқ юлдузи, 2019. – № 1.
9. Назарова Д. Жамол Камол шеърляти поэтикаси: филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси. – Бухоро, 2021.

10. Qarshiyev K.A. Jamol Kamol she'riyatida janrlar va shakllar rang-barangligi: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Samarqand, 2022.

11. Akramova S.R. Jamol Kamol she'riyatida tojikcha-o'zbekcha leksemalarning leksik-semantik xususiyatlari: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Buxoro, 2023.

12. Hakimov M.M. Jamol Kamol ijodining mavzu ko'lami va g'oyaviy-badiiy xususiyatlari: filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. – Toshkent, 2024.